

ISSN 2181-9580

TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTLARI

ILMIY - NAZARIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN

OF THE TASHKENT
STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

ANIQ FANLAR
TABIIY FANLAR
FILOLOGIYA
PEDAGOGIKA
PSIXOLOGIYA
TARIX

№ 1 (22).2020
tdpujournal@mail.ru



ISSN 2181-9580

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTLARI
ILMIY-NAZARIY JURNAL

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN
OF THE TASHKENT
STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

2020

1-SON

*Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan
2014-yil 30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan.
tdpujournal@mail.ru*

Unit tarkibidagi har bir darsning 1 Listen and sing disk yozuvidagi qo'shiqni tinglash va aytish yoki qaytarish mashqida auditiv ko'rgazmalilikdan foydalanilgan bo'lib, 6 ta dars uchun bitta qo'shimcha berilgan. O'smir yoshdagi o'quvchi uchun bitta qo'shiqni 2 hafta davomida tinglash va kuylash zerikarli bo'lishi mumkin. Ayrim vizual vositalarning poligrafik sifati, estetik qiymati talab darajasidan past, (Unit I. L1.2a; L2.2a; Unit III. L5.2a va hokazo).

Ko'rgazmalilik prinsipining darsliklardagi amaliy tatbiq etilishi holati bo'yicha ayrim tavsiyalar ishlab chiqiladi:

- darslikda mavzularni taqsimlash va joylashtirishda ketma-ketlik va izchillik prinsipiga to'liq amal qilish lozim; ko'rgazmalilikdan foydalanishda o'quvchi yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda predmetli tasvir (rasm)ga nisbatan kommunikativ nutq vaziyatlarini ifodalovchi verbal ko'rgazmalilikka ko'proq urg'u berish (talab etiladi) lozim; ko'rgazmalilik o'quvchining ko'rish, eshitish xotirasini va esda saqlash qobiliyatini mustahkamlashga, diqqat-e'tiborini jamlashga, tanqidiy va ijodiy fikrlashga, tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'minlash zarur; chet tilda kommunikativ faoliyat yuritishga stimul, motivatsiya, turtki vazifasini bajarishi lozim; multilingval va multimadaniy ijtimoiy sharoitda olam manzarasini ifodalash imkoniyatini yaratish kerak; verbal ko'rgazmalilik orqali o'quvchi til tajribasini (ona tili, rus tili, ingliz tili) hisobga olish inglizabon mamlakatlar madaniyati, urf-odatlarini ifodalovchi maqol, she'r kabi verbal ko'rgazmalilikdan kengroq foydalanish zarur, chunki ularsiz kommunikativ kompetensiya tarkibiga kiruvchi pragmatik, ijtimoiy-madaniy, lingvo-madaniy, tilga oid kompetensiyalarni A2 darajada rivojlantirish qiyin ekanligini hisobga olish zarur.

Shunday qilib, chet til ta'limining barcha bosqichlarida prinsiplarga amal qilish xotira, tasavvur, tafakkur, bilish, nutq, mustaqil izlanish, o'z-o'zini boshqarish, xolis baholash intellektual salohiyatni shakllantirishga vosita bo'lib xizmat qiladi va chet tilida mustaqil muloqot qila olish ijodkor, salohiyatli o'quvchilarni tarbiyalashdek maqsadga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

ADABIY TA'LIM TIZIMINI TEXNOLOGIYALASHTIRISH VA BADIY-ESTETIK TAFAKKUR MUAMMOLARI

**Matchonov S. - Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika instituti
professori, pedagogika fanlari doktori**

Annotatsiya. Maqolada adabiy ta'lim tizimini texnologiyalashtirish orqali talabalarning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirish masalalari "ta'lim

texnologiyasi”, “texnologiya”, “metod” va “metodika” terminlari tarixi orqali bayon qilinadi. Ta’lim tizimini texnologiyalashtirish shaxs ma’naviyatini kamol toptirishda muhim o‘rin tutishiga ko‘ra ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq hodisa sifatida ko‘zdan kechiriladi.

Kalit so‘zlar: intellektual salohiyat, uzluksiz ta’lim, metod, metodika, texnologiya, pedagogik texnologiya, badiiy-estetik tafakkur tarbiyasi.

ТЕХНОЛОГИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ЛИТЕРАТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПРОБЛЕМЫ ХУДОЖЕСТВЕННО- ЭСТЕТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Матчонов С. - профессор Чирчикского государственного педагогического института Ташкентской области, доктор педагогических наук

Аннотация. В статье освещаются вопросы формирования художественно-эстетического мышления студентов посредством технологии литературного образования через историю терминов «образовательная технология», «технология», «метод» и «методика». Технологизация системы образования рассматривается как явления, связанное с развитием социального общества, которое играет важную роль в повышении духовности личности.

Ключевые слова: интеллектуальный потенциал, непрерывное образование, методы, методики, технологии, педагогические технологии, художественно-эстетическое мышление

TECHNOLOGIZATION OF THE SYSTEM OF LITERARY EDUCATION AND PROBLEMS OF ARTISTIC AND AESTHETIC THINKING

Matchonov S. - Professor, Chirchik State Pedagogical Institute of the Tashkent Region, Doctor of Pedagogical Sciences

Annotation. The article proposes the formation of artistic and aesthetic thinking of students through the technology of literary education through the history of the terms “educational technology”, “technology”, “method” and “technique”. Technologization of the education system is considered as a phenomenon associated with the development of social society, which plays an important role in improving the spirituality of the individual.

Key words: intellectual potential, educational technology, continuing education, methods, techniques, technologies, artistic and aesthetic thinking.

Buyuk yunon mutafakkiri Aristotel “Metafizika” asarini “Barcha insonlar tabiatan bilimga intiladilar” soʻzlari bilan boshlaydi. “Kitob oʻqimaslik va fikr yuritmaslik halokatga olib boradi”. “Eng aqlli va eng ahmoq odamlargina fikrini oʻzgartirmaydi,”- deb yozadi Konfutsiy. “Oʻzimdagi barcha yaxshi xislatlar uchun kitobdan minnatdorman,” - deb taʼkidlaydi Maksim Gorkiy.

Dunyoga mashhur zotlarning fikrlaridan koʻchirmalar keltirishdan maqsad tafakkur qudratining har qanday davr va jamiyatda shaxs maʼnaviy kamolotini belgilovchi mezon ekanini taʼkidlashdir. Shunga koʻra, uzluksiz taʼlim tizimida diqqat markazida tutiladigan intellektual salohiyat tarbiyasi oiladan boshlanadigan badiiy-estetik tafakkur tarbiyasidan oziqlanishi adabiy taʼlim jarayonini texnologiyalashtirishning gʻoyatda keng qamrovligidan dalolat beradi.

Inson erkinligi va mustaqilligini bosh masala deb hisoblovchi ekzistensializm oqimining asoschisi, nemis faylasufi Martin Xaydegerning fikricha, tushunishni talab qiladigan narsa fikrlashga, tafakkur yuritishga undaydi. Tafakkur zamirida esa tasavvur turadi. Tasavvur fikr orqali oʻz ifodasini topadi. Shunday ekan, ilm-fan, texnika yuksak taraqqiyot bosqichiga koʻtarilgan hozirgi davr globallashtirish sharoitida soʻz sanʼatining tub mohiyatini anglashga daʼvat qilingan, inson tafakkuri va tasavvurini maʼnaviy-ruhiy oziqlantiruvchi adabiy taʼlimga munosabat soha mutaxassislarini ham, til va adabiyot oʻqituvchilarini ham qiziqtirishi tabiiydir.

Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi taraqqiyotining 2017-2021-yillarga moʻljallangan Harakatlar strategiyasida “jismonan sogʻlom, ruhan va aqlan rivojlangan, Vatanga sodiq, qatʼiy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash... yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qoʻllab-quvvatlash” vazifasining qoʻyilishi, Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ijodkor ziyolilar vakillari bilan uchrashuvda “madaniyat sohasida jaholatga qarshi maʼrifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy sanʼatni anglashga oʻrgatish, ularning estetik olamini sogʻlom asosda shakllantirish boʻyicha oldimizda muhim vazifalar”¹ turganligiga eʼtibor qaratishi taʼlim tizimini texnologiyalashtirish bilan bogʻliq muammoning davlat siyosati darajasiga dahldorligidan dalolatdir. Ilm-fan va ijtimoiy jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida taʼlim tizimidagi allaqachon oʻz davrini oʻtab boʻlgan anʼanaviy usullarda mazkur vazifalar ijrosini amalga oshirib boʻlmazligi barchaga ayon boʻlib qoldi. Uzluksiz taʼlimning boshqa sohalarida boʻlgani kabi adabiy taʼlim jarayonini texnologiyalashtirmasdan turib biron bir samaraga erishib boʻlmazligi hayotning oʻzida isbotini topib turibdi.

¹ Мирзиёев Ш.М. “Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий олами юксалтиришнинг мустахкам пойдеворидир”. Ўз АС, 2017 йил 4 август..

Ilmiy-qomusiy adabiyotlarda “texnologiya” tushunchasiga ma’lum maqsadga erishishga doir usullar majmuasi, faoliyatda qo’llanadigan usullar, faoliyatni tashkil etish qoidasi kabi turlicha qarashlar mavjud.

Muammoning tarixiga nazar tashlansa, uning yuzaga kelishiga ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar bilan ularning yaratilishiga sifat jihatdan yangicha yondashuvlar sabab bo’lgan degan xulosaga kelish mumkin. Bu borada o’tgan asrning 70-yillarida paxta chigitini kvadrat uyalab ekish bo’yicha “Andijon texnologiyasi” atamasining keng miqyosda qo’llanganini eslash kifoya. Hozirgi ilmiy-texnik taraqqiyot davrida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan bundan oldin ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifatida katta farq borligi hech kimga sir emas. Ijtimoiy taraqqiyotni ilm-fan rivojisiz, oliy ma’lumotli mutaxassislar faoliyatisiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Shunga ko’ra, talabalarning tezkor zamonaviy axborot oqimini o’zlashtirishi, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish malakalari, individual va mustaqil ishlash ko’nikmalarini rivojlantirish oliy ta’lim tizimi oldidagi g’oyat dolzarb masalalardandir. Negaki ishlab chiqarish sharoitining o’zgarishi bilan an’anaviy ta’lim asosida tayyorlangan mutaxassislarning bilim sifati, ko’nikma va malakalari darajasi ularga qo’yiladigan talablarga javob berolmasligi tabiiy holdir. Binobarin, ilmiy-texnik taraqqiyotning hozirgi jadallashuvi sharoitida uning tobora yuksalib boruvchi talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash o’qitishni jadallashtirish, ta’lim strategiyalaridan, ko’rgazmali o’qitish metodlaridan o’rinli va unumli foydalanishni taqozo etadi. So’nggi yillarda o’qitishni jadallashtirish yuzasidan ta’lim fanlari integratsiyasiga oid qator ishlar amalga oshirilayotganligi ma’lum. Oliy o’quv yurtlarining birgina gumanitar fanlar ta’limida ona tili va adabiyot, ona tili, bolalar adabiyoti va folklor fanlarining bitta o’quv kursi tarzida umumlashtirilishi fikrimiz dalilidir. Bu xildagi umumlashtirish o’zini qay darajada oqlaydi? Gap shundaki, ularni bitta o’qituvchining o’qitishi nazarda tutilsa, muammoning qay darajada ziddiyatli ekanini anglash qiyin kechmaydi. Aslida bunday o’quv fanlariaro integratsiyaga ilgari ham harakat qilingan. 1919-yilda 7 yillik maktablar uchun yaratilgan dasturda barcha fanlar ijtimoiy fanlar, tabiiy fanlar, aniq fanlar tarzida 4 ta kurs doirasida umumlashtirilgani, lekin uning ijobiy natija bermaganligi ta’lim tarixidan ma’lum. Bugungi kunda keng miqyosda o’rtaga qo’yilayotgan ta’lim tizimini texnologiyalashtirish muammosi ijtimoiy taraqqiyot bilan bog’liq bo’lsa-da, u haqidagi g’oya dastlab Amerika Qo’shma Shtatlari va G’arbiy Yevropa mamlakatlarida o’rtaga tashlangan edi. O’tgan davr mobaynida unga turli jihatdan yondashildi. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda shaxsning ijtimoiylashuvi nazarda tutilgan ta’lim texnologiyasi misolida ta’limni insonparvarlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuni ham aytish kerakki,

pedagogikaga oid adabiyotlarda sinonim atamalar sifatida yonma-yon ishlatilayotgan metod, metodika, texnologiya, pedagogik texnologiya terminlari sinonim atamalar sifatida yonma-yon ishlatilsa-da, ta'lim texnologiyasi ma'nosini to'la qamrab olmaydi. Ulardan ta'lim metodi o'quv jarayonida qo'yilgan vazifalarning o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi yechimi usulini anglatga, ta'lim metodikasi muayyan o'quv fanini o'qitishning ilmiy-metodik jihatdan asoslangan metod, usul va uslubi majmuini ifoda etadi. Ta'lim texnologiyasi esa oldindan loyihalashtirilgan ta'limiy jarayonda yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich aniq maqsadga kafolatlangan natijaga erishish ko'zda tutilgan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish jarayonini boshqarishni bildiradi.

Ta'lim texnologiyasi – ingliz tilidan ta'lim jarayonini san'at darajasida yuksak mahorat bilan tashkil etishga doir ma'lumotlarga oid ta'limot ma'nosini anglatadi. U amaliyotga tatbiq qilinadigan pedagogik tizim loyihasi sifatida ilmiylik, amaliylik, tavsifiylik va tizimlilik xususiyatiga ega. Pedagogik texnologiya ma'lum vaqtga mo'ljallangan dastur bo'yicha tuzilgan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishi kafolatlangan, ilmiy jihatdan asoslangan tizimdir. Ta'lim tizimidagi har qanday o'quv fanida bo'lgani singari adabiyot o'qitish metodikasi rivojida ham jamiyat taraqqiyoti muhim o'rin tutadi.

Internet tarmog'ining chuqur ildiz otishi, axborot oqimining uzluksiz o'sa borishi ta'lim-tarbiya tizimini texnologiyalashtirish muammosiga yangicha yondashishni kun tartibiga qo'ymoqda. Pedagogik ta'lim ta'lim oluvchi talabaning shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni nazarda tutar ekan, shu jarayonda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalar darajasi hamda talabalarning qiziqishi va faolligiga tayanadi. Ko'rinadiki, ushbu jarayondagi talaba faoliyati uning shaxs sifatidagi rivojlanishining asosiy substansiyasi hisoblanadi. Adabiy ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishda ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch, shuningdek, ortiqcha vaqt sarf etmasdan, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish, talabalarda tegishli darajada bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish nazarda tutiladi. Adabiy ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishning innovatsion klasterini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Adabiy ta'lim jarayonini loyihalash.
2. O'quvchilar faoliyatini tashxislash.
3. Adabiy ta'lim jarayonini tashkil etish.
4. Adabiy ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash.
5. Adabiyot darslarida o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish.
6. Adabiy ta'lim jarayonining samaradorligi tahlili.

Shu jarayonda pedagogik faoliyat samaradorligining ortishi, o'qituvchi va talabalar hamkorligining qaror topishi, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikma-malakalarining shakllanishi, talabalarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlariga doir shart-sharoitlar yaratilishi, natijada adabiy ta'lim yuzasidan puxta bilim o'zlashtirilishi ta'minlanadi.

So'nggi yillarda ta'lim jarayonida talabalarning faolligini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi texnologiyalarni qo'llash yuzasidan katta tajriba to'plandi. "Aqliy hujum", "6x6", "Klaster", "Qarorlar shajarasi", "Qor quti", "Yumaloqlangan qor", "Zig-zag", "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim", "Venn diagrammasi", "Insert" metodlari shular jumlasidandir. Shu o'rinda adabiy ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishning nazariy asoslari nimalardan iborat va u talabalarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishda qanday ahamiyat kasb etadi degan haqli savol tug'iladi. Bizningcha, buning talay sabablari bor. Ijtimoiy jamiyat taraqqiyotning tezkor sur'ati, axborot ko'lamining muttasil orta borishi, badiiy ijodiyotda dunyoni anglash va tushunishga bo'lgan munosabatning o'zgarishi, adabiyotshunoslikda badiiy asarlar tahlili va talqiniga yangicha yondashuvlarning yuzaga kelishi adabiy ta'lim jarayoniga eski qolipdagi an'anaviy ta'limdan voz kechish zaruriyatini taqozo etmoqda. Adabiy ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish ta'limga tizimli yondashish, tashxislash, loyihalash, hamkorlikda faoliyat ko'rsatish, o'z nuqtayi nazarini asoslash, yutuq va kamchiliklari sababini anglash, tegishli xulosa chiqarish imkonini beradi.

Xulosa qilganda, texnologiya ta'lim oluvchilarning qiziqishi, ma'naviy ehtiyoji va texnik imkoniyatlardan foydalangan holda oldindan loyihalashtirilib kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirilgan o'qituvchi va talabalarning amaliy faoliyati sifatida badiiy-estetik tafakkur tarbiyasiga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning "...yoshlarimizning mustaqil miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi"² ga erishishning muhim sharti sifatida ta'kidlanishi respublikamizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlarning tub mohiyatini belgilaydi.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ- 4947- сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017, 6-сон. 2. 12-6

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Poznyak A.V. Belarus Respublikasida ta'limni qo'llab-quvvatlash muammolari	2
Sin Sung Jae. Oliy ta'lim talabalarining boshqaruv sohasidagi kasbiy kompetentligi	12
Mirziyoyeva Sh.Sh. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining innovatsion kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda integrativ yondashuv	24
Mirqosimova M. O'qituvchi shaxsini shakllantirishda kitobning ahamiyati ..	45
Masharipova U.A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida innovatsion madaniyatni shakllantirish pedagogik muammo sifatida	50
Sodiqova A.V. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini TIMSS tadqiqotlarida qatnashish uchun tayyorlash	55
Rahimova F.A. Oliy ta'lim tizimida integrativ yondashuv asosida matematika tarixini o'rgatish imkoniyatlari	63
Xoshimova Sh. S. Talabalarni differensiyallashgan yondashuv asosida elektron o'qitish imkoniyatlarini oshirish	68
Nurmaxanov K. Analitik geometriya fanini o'qishda talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish	75
Sharipov S. S., Qo'ziyev Sh. S. Matematika fani o'qituvchilarini tayorlashda fanlararo integratsiyaning asoslari	79
Shodmonova Sh.Q. Akademik litseylarda umumiy kimyo faniga oid test topshirig'i, misol va masalalarni yechishda mantiqiy fikrlashning o'rni	86
Urazmetova Sh. Texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida diskret matematikasini o'qitishda Keys metodini qo'llash	91
Yunusov Sh.T. Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorlik monitoringi	97
Shaxaldarova G., Ochilova V. Chet til ta'lim vositalarida didaktik prinsiplar tatbig'i tahlili	104
Matchonov S. Adabiy ta'lim tizimini texnologiyalashtirish va badiiy-estetik tafakkur muammolari	110

TARIX

Abdullayev D.N. Xayriya va metsenatlik masalasi: O'zbekiston va jahon tajribasi	116
Kamolov J.M. Eftalitlar tarixi manbalarda	123
Mirzayev G'. O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan integratsiyalashuvda transport kommunikatsiyalarining o'rni	127
Oltiboyev A. O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari hamkorligining yangi bosqichi	133
Tayronov Yo.R. XX asr boshlarida Turkistonda yangi usul maktablarini tashkil etishda mahalliy tadbirkorlarning ishtiroki xususida	137
Haqnazarov X. Markaziy Osiyo yoshlari kundalik hayotida sog'lom turmush tarzi masalasi	143